XALQ DEPUTATLARI XORAZM VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 14-dekabr VII-2-019-12-0-K/24 Xorazm viloyati

Xorazm viloyati Bog‘ot tumani markazining tasdiqlangan bosh rejasiga qisman o‘zgartirish kiritish bo‘yicha ishlab chiqilgan batafsil rejalashtirish loyihasini tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksining 21 va 46-moddalari, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

Qaror qiladi:

1. “FAZO SHAHARSOZ QURUVCHI” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan Bog‘ot tumani markazining tasdiqlangan bosh rejasiga qisman o‘zgartirish kiritish bo‘yicha ishlab chiqilgan batafsil rejalashtirish loyihasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Bog‘ot tumani markazining tasdiqlangan bosh rejasiga qisman o‘zgartirish kiritish bo‘yicha ishlab chiqilgan batafsil rejalashtirish loyihasi 1-ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (M.Kalandarov), Bog‘ot tumani hokimi J.Nazarov tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

Bog‘ot tumani markazining tasdiqlangan bosh rejasiga qisman o‘zgartirish kiritish bo‘yicha ishlab chiqilgan batafsil rejalashtirish loyihasini amalga oshirish kompleks chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqsin;

hududlardagi yerlardan maqsadsiz foydalanish va noqonuniy qurilishlarni amalga oshirishga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan qat’iy nazorat o‘rnatish yo‘li bilan ulardan samarali foydalansin;

energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali muhandislik kommunikatsiya tuzilmasini (suv, elektr, gaz, issiqlik ta’minoti, telekommunikatsiya obyektlari, kanalizatsiya, irrigatsiya) qurish va rekonstruksiya qilish yo‘li bilan ushbu sohalarni modernizatsiya qilsin;

bosh rejani amalga oshirishda bosh reja talablariga qat’iy rioya qilinishi yuzasidan tizimli nazorat o‘rnatsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi

RADJABOV ALTIBAY BEGJANOVICH

Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining
2024-yil 14-dekabrdagi
VII-2-019-12-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

BOSH REJA

M 1:1000

"TASDIQLAYMAN"

Bog'ot tumani hokimi — *J.Nazarov*

"KELISHILDI"

Xorazm viloyati bosh arxitektori	*F.Masharipov*
Tuman hokimining o'rinbosari	*S.Xo'janiyozov*
Tuman qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi boshlig'i	*R.Jumaniyozov*
Davlat kadastrlar palatasi Bog'ot tumani filiali rahbari	*E.Eshniyazov*
Bog'ot tuman SEO va JSX boshlig'i	*B.Niyazov*
Bog'ot tumani FVB bo'lim boshlig'i	*Sh.Xudayshukurov*